

5. *Khamdamov Sh. Analysis of International Indicators of Innovative Development and Inclusive Growth in the Republic of Uzbekistan/19th RSEP International Economics, Finance & Business Conference Proceedings Full papers. Pg.282-288. 2020 Prague, Czechia*
6. *Khamdamov Sh. Analysis of the state of the green economy in Uzbekistan/ "Innovation in economics". Toshkent-2020. Pg107-114*
7. *Khamdamov Sh. Indicators and Conditions for Sustainable Development. 13th RSEP International Conference on Business, Economics & Finance, Istanbul, Turkey, 2019.*
8. *Turayeva, G., Berdiyev, G., Eshpulatov, D., Alimova, D., Odilbekov, A., Davletova, D., ... & Burxanov, A. (2022, December). OPPORTUNITIES TO USE FINANCIAL SERVICES—"1 C PROGRAM". In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 556-561).*
9. *Yusupov, S., Boymuradov, S., Bobamuratova, D., Shukhratova, M., Marupov, I., Akramova, D. T., ... & Muradova, D. A. (2022, December). DIAGNOSTIC ASPECTS OF ZYGOMATIC-ORBITAL COMPLEX FRACTURES WITH THE USE OF MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 399-403).*
10. *Muftaydinova, S. K., Chuprynin, V. D., Fayzullin, L. Z., Buralkina, N. A., Muminova, Z. A., Asaturova, A. V., ... & Abdullayev, S. I. (2022, December). EXPRESSION OF THE TYROSINE KINASE RECEPTOR (EPHA1) IN THE EUTOPIIC AND ECTOPIC ENDOMETRIUM OF PATIENTS WITH DEEP INFILTRATIVE ENDOMETRIOSIS USE OF MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 416-421).*
11. *Khamdamov, S. J. (2021, December). Calculating Share of Factors of Intensive Economic Growth in Uzbekistan. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 393-397).*

“O’ZBEKISTON- 2030” STRATEGIYASIDA BELGILANGAN MAQSADLI PARAMETRLARGA ERISHISHDA OLIY TA’LIMNING O’RNI

*Xalmurzayeva Naima
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
"Menejment va marketing" kafedrası
katta o'qituvchisi*

Oliy ta'limning iqtisodiy o'sishdagi roli juda katta va ko'p qirralidir. Ta'lim tizimi, ayniqsa oliy ta'lim, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida tan olingan. Oliy ta'lim eng avvalo yuqori malakali ishchi kuchi tayyorlashga yordam beradi. M.Saidova ta'kidlaganlaridek, bugungi davr, ayniqsa, zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan muxandis-texnologlar, iqtisodchilar, korporativ boshqaruv menejrlari, marketologlar, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida dasturchilarni tayyorlashni tubdan kuchaytirish va mazkur sohalarida iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni talab qilmoqda [2].

Bundan tashqari iqtisodiy diversifikatsiya ham oliy ta'lim rivojlangan sari yuksaladi. Oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqotlar va yangiliklar yaratish markazi hisoblanadi. Ular yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishda katta rol o'ynaydilar. Oliy ta'lim yordamida yangi sohalar va yo'nalishlar rivojlantiriladi, bu esa

iqtisodiyotni yanada diversifikatsiya qilish va uning turg'unligini oshirish imkonini beradi. Masalan, texnologiya, sun'iy intellekt, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalar oliy ta'lim tufayli rivojlanadi

Universitetlar va oliy o'quv yurtlari ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish orqali yangi texnologiyalar va yechimlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Bu yangiliklar iqtisodiyotning turli sektorlarida samaradorlikni oshirishga va yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi. Oliy ta'limning iqtisodiy o'sishda yana bir muhim roli shundaki, u mamlakatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligi uchun asos bo'lgan inson kapitalini rivojlantirishga yordam beradi. N. V. Parshina o'z maqolasida "Zamonaviy dunyoda aynan inson kapitali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, bilimga asoslangan va ijtimoiy rivojlanishning tezlashishi, iqtisodiy dinamikaning kuchayishi va vaqt o'tishi bilan va dunyo tsivilizatsiyasining sarson-sargardonligi bilan bog'liq muammolarga munosib javob bera oladigan harakatlantiruvchi kuch sifatida qaraladi" – deb ta'kidlaydi [3]. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, aholining ta'lim darajasi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Ularda oliy ma'lumotli fuqarolar ulushining oshishi va ishlayotgan mutaxassislarni uzluksiz o'qitish strategiyasi ishlab chiqarish hajmining oshishiga, ish o'rinlari soni va sifatining yaxshilanishiga, shuningdek, aholining real daromadlarining o'sishiga olib keldi. Shunday ekan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Ushbu ishning asosiy maqsadi mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishdir. Faqat xom ashyo va uni qayta ishlash uzoqqa bormaydi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat yaratish uchun innovatsiyalar zarur. Shuning uchun ilm – fan muhim yo'nalish, taraqqiyotimizning tayanch nuqtasi bo'ladi"[5]. Darhaqiqat, zamonaviy postindustrial jamiyatning asosiy tendentsiyalaridan biri bu insonning ijtimoiy tuzilishdagi yetakchi rolini va inson kapitalining iqtisodiyotdagi ahamiyatini anglashdir. Bu an'anaviy sanoat qadriyatlaridan axborot texnologiyalari va globallashtirish davrida rivojlanish va taraqqiyot uchun asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va ijodkorlikning ustuvorligiga o'tishni ta'kidlaydi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi aynan shu borada O'zbekistonning kelajakdagi rivojlanishini belgilab beruvchi muhim hujjatidir. Ushbu strategiya ko'plab sohalarda, jumladan oliy ta'lim sohasida ham aniq maqsadlar va vazifalar qo'yadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Hech qachon unutmaylik, dunyodagi o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan eng katta boylik bu – bilim va tarbiyadir". Strategiyada oliy ta'limning roli quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali ta'kidlanadi:

- **Sifatli ta'lim tizimini rivojlantirish:** Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish va pedagog kadrlarning malakasini yuksaltirish orqali ta'lim tizimini takomillashtirish ko'zda tutiladi.

- **Innovatsiya va tadqiqotlarni rag'batlantirish:** Universitetlar va boshqa ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, innovatsion g'oyalarni va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash strategiyaning muhim qismidir.

- **Xalqaro hamkorlikni kengaytirish:** Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorlik dasturlarida faol ishtirok etishi, chet el universitetlari bilan hamkorlik qilish va talabalar hamda o'qituvchilarning almashinuv dasturlarida qatnashishi ta'kidlanadi.

- **Kasbiy ta'lim va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish:** Talabalar uchun amaliy tajriba va stajirovka imkoniyatlarini kengaytirish, shu bilan birga kasbiy ta'limni yanada moslashuvchan va amaliyotga yo'naltirilgan qilish [4].

Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirib, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish uchun yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish hamda "Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish maqsad qilib qo'yildi. Hamda 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1 000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish va Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish rejalashtirildi.

Shu bilan birga Oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash borasida ham keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish, jumladan, kutubxonalarni kamida 1 million ta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish ko'zda tutilgan.

Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo'nalishlar bilan boyitish uchun quyidagilar rejalashtirildi:

-Fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so'm mablag' ajratish;

-Fundamental tadqiqot yo'nalishi bo'yicha 8 ta yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

-Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun 2 trillion so'm ajratish [1].

Demak, Oliy ta'lim O'zbekistonning barqaror rivojlanishga o'tish jarayonida muhim rol o'ynaydi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki u fuqarolar o'rtasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarida faol ishtirok etish uchun zarur bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimi innovatsiyalar va yaratuvchanlikni rag'batlantirishi, shuningdek, global bozorlarda raqobatbardosh bo'lish uchun zarur bo'lgan xalqaro hamkorlik va tarmoqlar yaratishda muhim o'rinni egallaydi. Natijada, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash orqali O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va xalqaro maydonda o'z o'rni va obro'sini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lish bilan birga, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy darajasini ko'tarish va fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash yo'lida ham katta qadam tashlanadi. Bu jarayonlar o'z navbatida, jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga va ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimi nafaqat kasbiy malaka va bilimlarni, balki keng dunyoqarash va chuqur tushunchalarni ham shakllantiradi, bu esa fuqarolarni mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishga undaydi. Shuningdek, oliy ta'lim yoshlarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va yangiliklarni joriy etishga tayyorlaydi, bu esa ularni kelajakda mamlakat rahbariyati va boshqaruviga munosib hissa qo'shishga tayyor mutaxassislar qilib tarbiyalaydi.

Oliy ta'limning bu roli, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanayotgan sharoitida yanada muhimdir. Ta'lim olgan yoshlar raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashga qodir bo'lib, bu esa O'zbekistonning texnologik innovatsiyalarga moslashuvchanligini va raqobatbardoshligini oshiradi. O'z navbatida, bu holat mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va xalqaro miqyosda tan olinishiga olib keladi, bu esa O'zbekistonni global iqtisodiyotda muhim o'yinchi aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limning kuchli va zamonaviy tizimi O'zbekistonning kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha asosiy elementlarni ta'minlaydi: raqobatbardosh kadrlar, ilmiy va texnologik yangiliklar, hamda jamiyatning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" gi farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/>
2. Mavludaxon saidova (2022). Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyasini rivojlantirish. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1 (9), 61-65.
3. Паршина Н. В. Человеческий капитал: сущность, содержание, особенности // *Мир современной науки*. – 2013. – № 3 (18). – С. 65–71.
4. [Prezident "O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqladi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz](https://www.gazeta.uz)
5. <https://xs.uz/ru/post/shavkat-mirziyoev-osnovnaya-tsel-razvivat-chelovecheskij-kapital-v-nashej-strane>

ISLOM MOLIYASI ORQALI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI YANADA RIVOJLANTIRISH

Raxmatov Hamid

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi katta o'qituvchisi

Mintaqadagi eng ko'p aholi va musulmonlar eng ko'p jamlangan davlat bo'lgan O'zbekiston bo'lib o'z hududida Islomiy moliya orqali moliyaviy sanoatini rivojlantirish uchun juda katta istiqbolga ega. Islom moliya mahsulotlarning mavjudligi O'zbekistonga nafaqat o'zining ko'p sonli musulmon aholisidan, balki qo'shni davlatlardan, shuningdek, Yaqin Sharq, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo va ba'zi boshqa musulmon davlatlaridan investorlar mablag'larini jalb qilish imkonini beradi. Birgina mamlakatdagi islom bank ishi va moliyasining potentsial mijozlari O'zbekistonda yashovchi 25 millionga yaqin musulmondur [1].

O'zbekistonda moliya institutlari tomonidan taklif etilayotgan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning paydo bo'lishi bilan mamlakat aholisining ehtiyojlarini hisobga olish yanada aniq va zarur bo'ldi. O'zbekistonda aholining ko'pchiligi diniy e'tiqodiga ko'ra musulmon ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ularning o'ziga xos diniy ehtiyojlari o'z biznesi va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun shariatga mos